

### O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA BOLA RUHIYATI TASVIRI

**Shodiya Hamdamova**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti*  
[shodiyahamdamaova@gmail.com](mailto:shodiyahamdamaova@gmail.com)

**Annatsiya:** Ushbu maqolada yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida bola ruhiyati tasviri, badiiy psixologizmi tahlil etilgan. Tahlilda bola ruhiyatiga, ichki olamiga, ularning qissadagi tasviriga va bu tasvirni yuzaga keltiruvchi psixologik tasvir vositalariga to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy psixologizm, ruhiy tasvir, bola ruhiyati, jonli bola portreti, o‘yin, qiziquvchanlik, to‘g‘riso‘zlik, ishonish, ichki monolog, dialog.

**Annotation:** This article analyzes the psychology of a child and artistic psychologism in O‘tkir Hoshimov’s novella “Dunyoning ishlari” (The affairs of the World). The analysis focuses on the child’s psyche, inner world, their portrayal in the novella, and psychological depiction techniques used to bring these portrayals to life.

**Keywords:** Artistic psychologism, psychological depiction, child psychology, vivid child portrait, play, curiosity, honesty, trust, inner monologue, dialogue.

**Аннотация:** В данной статье рассказ писателя Уткира Хашимова «Дунянинг ишлари» (Дела мира) анализируется детская психика и художественная психология. В центре внимания анализа психика ребёнка, его внутренний мир, его образ в рассказе, а также средства психологического изображения, создающие этот образ.

**Ключевые слова:** Художественная психология, мысленный образ, детская психика, детский портрет, игра, любопытство, правильность, верить, внутренний монолог, диалог.

Adabiyotning obykti inson bo‘lganligi bois badiiy adabiyotda insonning mohiyatini anglash, uning his-tuyg‘u va kechinmalarini ifodalash ustuvorlik kasb etadi. Inson ruhiy olami tasviri adabiyotda eskirmaydigan, muhim masala bo‘lib qolaveradi. Shu bois insonning ma‘naviy, ruhiy qiyofasi tasvirini badiiy adabiyotning muhim omili sifatida e‘tirof etishimiz mumkin.

Adabiyotda inson ichki dunyosining chuqur badiiy tadqiqi “badiiy psixologizm” deb ataladi. Boshqacha aytganda, psixologizm – adabiyot va san’atda insonning psixik, ruhiy kechinmalarini teran tasvirlashdir.

Psixologizmda qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish atroflicha, keng tasvir, uning qalbidagi turli holatlarni tahlil etish, nozik hissiyot va kechinmalarga e‘tibor berish kabi masalalar birlamchi o‘rinda turadi. Belinskiyning uqtirishicha, san’atkor o‘z asarida insonni aks ettirar ekan, o‘sha inson ko‘lanka emas, balki jonli odamning o‘zi bo‘lishi kerak; u jismoniy tuzilishiga, xarakterga, axloqqa, o‘z odatiga, xullas, uni hayotdagi boshqa odamlardan ajratib turuvchi barcha

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i lozim. Inson ruhiyati haqida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim S.L.Rubinshteyn badiiy asarda inson ruhiyatining tasviri haqida shunday deydi: “So‘z san’atkorlari qahramon psixologiyasini tasvirlar ekan, aynan uning(qahramonning) kechinmalari – kamolotga erishishdagi individual yo‘lini hayotining burilish pallalari sifatida yoritishga intilishlari bejiz emas. Ittifoqo, inson kechinmalari – bu uning real hayotining subyektiv aspektidir” [7,13-bet].

Shu jihatdan olib qaraganda, badiiy asarda tasvirlangan insonning ruhiy olami o‘sha qahramonga xos bo‘lgan betakror xarakter xususiyatlari, uning kechinmalari, ichki olami, xulqi, iste’dodi, ma’naviyati singari jihatlarda gavdalanadi. Bu jihatni bir so‘z bilan aytganda ruhiy tasvir deyishimiz mumkin.

Ruhiy tasvir deyilganda personaj jismoniy jihatlari, his-tuyg‘ulari, kechinmalari, holatlari va uning ma’naviy-ruhiy olamidan chiqib keladigan shaxsiy tajribasining badiiy tadqiqi tushuniladi.

Inson deb atalmish yaratiq boshdan-oyoq mo‘jiza va jumboqlarning manbaidir. Ayniqsa, uning ichki olami bepoyon bir olam. Bu bepoyon olam zamonlar osha har bir ijodkor tomonidan turlicha kashf etib borilmoqda desak, yanglishmaymiz. Shunday ijodkorlardan biri o‘ziga xos samimiy uslubiga ega bo‘lgan ijodkor O‘tkir Hoshimovdir. Beg‘uborlik, samimiylilik, dilkashlik ufurib turgan asarlarida insonning eng samimiy tuyg‘ularidan, eng inja tuyg‘ularigacha bo‘lgan tasvirni ko‘rishimiz mumkin. Nafaqat ko‘rishimiz, balki yetarlicha his qila olishimiz ham mumkin. Buning sababini biz shoirning ushbu fikrlaridan ham bilib olishimiz mumkin: “Yozuvchi hayotiy materialni o‘z qalbining dardiga, o‘z vijdonining dav‘atiga aylantira olishi, mana shu voqea-hodisalarning hammasini yurak-yurakdan chuqur his etishi kerak. Avvalo o‘zim katta haqiqat deb bilgan narsani, yagona haqiqat deb bilgan narsani, o‘zim nihoyatda chuqur his etgan, qalbimning dardiga aylangan narsani yozishni xohlayman”. Adibning “Dunyoning ishlari” qissasi ham ana shunday chuqur his qilishlar, qalb qo‘ridan sado bergan dard, haqiqatlar natijasidir. Shu boisdan bu asarni o‘qigan inson shunchaki his qilib, shunchaki o‘qib keta olmaydi. Mazkur qissa haqida o‘tkir qalam sohibi Said Ahmad ham quyidagi ajib fikrlarni bayon etgan: “Dunyoning ishlari asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi”. Darhaqiqat, “Dunyoning ishlari” qissasi nafaqat onalar kechinmalari, ichki olami tasvirining go‘zal namunasi, balki bolalar ichki olami tasvirining ham o‘ziga xos

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

namunasidir. Beg‘uborlik, samimiylilik, ishonuvchanlik, qiziquvchanlik, xayolot olamida yashashlik, o‘yinqarolik, sho‘xlik singari bolalarga xos xususiyatlarni bevosita qissadagi bola tasvirida uchratishimiz mumkin. Bilamizki, bolalarda eng ko‘zga ko‘ringa xislat bu – to‘g‘riso‘zlikdir. Buning o‘ziga xos tasvirini quyidagi parchada ko‘rishimiz mumkin:

*“Bir kuni gapdan-gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:*

*- Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo‘yyapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?*

*- Sandiq qatta, bolam? – deb kuldi onam. – Qarzlirim bor. O‘shanga beramanda.*

*Akamning qovog‘i osildi:*

*- Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?*

*- E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?*

*Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim.*

*Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo‘shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas kiyib olibdi.*

*- Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.*

*- Bugun man tug‘ildim, - dedi u qop-qora ko‘zlarini pirpiratib jilmayarkan.*

*- Iya, yubilyar ekansanda, shoshmay tur-chi, hozir...*

*Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.*

*- Mana, o‘rtoqlaring bilan ye.*

*Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:*

*- Men ishkalad yemayman. Tishim tushgan. – Keyin yana o‘sha jiddiy ohangda qo‘shib qo‘ydi: - Bultur poshsha buvim menga tuflini olib beruvdilar. Tug‘ilganimda. – Qizcha o‘ylanib qoldi. – Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko‘ylak...*

*Qo‘limdan konfet tushib ketdi” [8,12,13-betlar].*

Nilufarning bu rostgo‘yiligi onasining qanday qarzi borligini ochiqdadi. Psixologlarning ta’kidlashicha, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar juda ko‘p miqdordagi ma’lumot qabul qiluvchisi bo‘lib, ko‘rgan va eshitganlarini uzoq muddatgacha eslab qoladilar va unutmaydilar. Bu yoshdagi bolalar taqlid qiluvchi bo‘lib, kattalardan ko‘rgan va eshitganlarini o‘rganadilar va taqlid qilib takrorlaydilar. Qahramonimiz Nilufar ham ko‘rgan narsasini unutmagan. Yozuvchi, bu qahramonni gavdalantirayotganida, bu jihatlarni, albatta unutmagan. Bolalarga xos bo‘lgan jihatlardan yana biri – qiziquvchanlik va bilishga bo‘lgan intilishdir. Jonli bola portretini chizgan adib bu jihatni ham ko‘zdan qochirmagan:

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

- Oyi, - deyman sekin. – Toshkentda yuz qavatli uy bormi?
- Yo‘q.
- Moskvada-chi?
- Bor bo‘lsa kerak.
- Moskva eng katta shaharmi?
- Eng katta shahar.
- Undan kattasi yo‘qmi?
- Bo‘lsa bordir[8,17].

Psixologlar fikricha, o‘yin faoliyatining bolalar ruhiyatida, umuman hayotida ahamiyati kattadir. Bola shug‘ullanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi; bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin jarayonida bolani xayoloti, xotirasi faol ishlaydi, ta’sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo‘ladi. Psixologik- pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlar bola shaxsining yuzaga kelishi sabablarining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatar ekan. O‘yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Z.V.Manuylekoning fikricha, biror bir maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotga nisbatan o‘yinda xulq ko‘nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Bu fikrlar nafaqat aqliy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘yinlar uchun balki jismoniy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘yinlar uchun ham ahamiyatlidir. Asarlarida bola obrazini yaratgan qaysi ijodkor bo‘lmasin, har biri bola obrazini o‘yin tasvirisiz tasvirlay olmaydi. Hatto shu o‘yinlarda ham bola ruhiyati, ichki olami yoritiladi. “Dunyoning ishlari” qissasida ham Toy laqabli bola va jo‘raboshi laqabi bilan yuritiladigan bolaning o‘ziga xos xususiyatlari va ichki olamiga shu o‘yin tasviri orqali boriladi. Jo‘raboshi quv, sho‘xroq, o‘z gapini o‘tkazishga urinadigan bola bo‘lsa, Toy laqabli Toyir ismli qahramon esa vazmin, biroz bo‘sh, gapga quloq soladigan, ishdan qochmaydigan boladir. Shuning uchun bo‘lsa kerak, unga tayinlangan mol boqish vazifasini ado etsa etadiki, lekin bolalar bilan qo‘shilib o‘yin o‘ynashni xohlamaydi. Bolalar ham uning aynan shu xususiyati uchun unga buyruq berishni, xohlagan ishlarini qildirishni xohlashadi. Toy esa doimgidek bu vazifalarni ado etadi. Shuning uchun hamma uni bo‘sh, bayov bola deb hisoblaydi. Adib bu qahramonlarni tasvirlash orqali har bir bolaning o‘z olami borligini va ular o‘z olamida yashashni xohlashlarini aytib o‘tishni xohlagandek, tuyuladi. Toyirning o‘z olami bor, jo‘raboshining esa o‘zigagina xos olami. Ular o‘z olamida yashashgani uchun ehtimol, bir-birini tushunmas.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Shuni ham ta’kidlab o’tishimiz joizki, bolalar ijodkorlardan so‘ng xayolot olamida eng ko‘p sayr qiluvchi insonlardir. Shuning uchun ularda xayol surish, yangi narsalarni o‘ylab topa olish, fantaziya kuchli bo‘ladi. Qissa qahramonlarida ham biz bu holatni kuzatishimiz mumkin:

*“Nim qorong‘i shiftga tikilib yotgan cha xayol suraman. Goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman”*[8,18].

Yoki:

*“Bahor paytlari kunchiqar tomondagi tog‘lar yaraqlab ko‘rinar, ularni har ko‘rganda xayol surar edim. O‘sha tog‘lar orasida Chirchiq degan shahar bor. Shunaqa katta shaharki, Toshkent uning oldida hech gapmas. U yerda shunaqangi katta daryolar borki, ichida akulalar suzib yuradi. O‘sha shaharda Xo‘ja degan bola bor. Dunyoda undan yaxshi bola yo‘q. Xo‘ja o‘sha daryolarda bemalol suzadi. O‘sha tog‘lar ustiga chiqib, butun dunyoni tomosha qiladi. U meni ham ko‘rib turibdi. Faqat men uni ko‘rolmayapman...”*[8,177-bet].

Keltirib o‘tilgan parchalarda biz bolaning o‘z xayollari orqali aytishni xohlagan narsalarini aytib o‘tayotganini, o‘zi ishongan hamda ishonmoqchi bo‘lgan fikrini tasdiqlatib olayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bolalarning sof xislatlaridan yana biri - o‘z xayollariga, fikrlariga o‘zini ishontira olish qobiliyatidir. Balki, shuning uchun ham bolalar biz kattalardan ko‘ra baxtliroq va kuchliroqdirlar.

Asar bir necha novellalardan iborat bo‘lgani bois bir qancha bola obrazini uchratish mumkin. O‘ziga xos xarakter, obrazlardan yana biri Xo‘ja ismli qahramondir. Yuvosh, lekin orzumand, eshitgan yomon ertagini yaxshi ertakka aylantirishga harakat qilayotgan, ko‘zlari umiddan javdirab turadigan bola. Bir so‘z bilan aytganda, muhit tufayli yoshiga nisbatan ulg‘aygan bola. Bilamizki, shaxs ma‘lum bir jamiyat, muhit mahsuli. Chunki inson doim qandaydir insonlar davrasi, muhitida bo‘ladi va ular bilan birgalikda shakllanadi. Chunonchi, angliyalik olim Djon Lokk dunyoga yangi kelgan chaqaloq, bolaning ruhini “top-toza taxta”ga o‘xshatadi. Uning fikricha, bolaning “top-toza taxta” tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo‘lib yetishishi, ya’ni unda qanday shaxsiy fazilatlarining tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o‘zgaralar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog‘liqdir, deb ta’kidlaydi. Biz Xo‘janing ham shaxs sifatida shakllanishi dinamikasida muhitning ta’sirini ko‘ramiz. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, orzumand, yuvosh, ko‘zlari esa doim umiddan javdirab turadigan bolaning keyingi holatlarini hikoya boshida tasavvur qilish qiyin. Urush tufayli uning onasi otasiga xiyonat qilib, so‘ngra qochib ketadi. Bu dunyoda bola uchun onadan

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

eng yaqin inson yo‘q, aslida. O‘sha eng yaqin insonidan uzoqda, ona mehridan yiroqda, dadasining alamidan bahramand bo‘lib ulg‘ayotgan Xo‘ja onasining qaytishidan umidvor holda yashaydi. Hatto qishloqdoshlari ham malomat qilayotgan onasini yuragining eng mehrlil burchagida yaxshi ko‘rib avaylaydi. Hammaga onasining unday emasligini aytmoqchi, hech yo‘q o‘z orzularida bunga ishonmoqchi bo‘ladi. Biroq hech kimga bildirmay u bilan ko‘rishadi. Bundan g‘azablangan otasi onasini haydab, boshqa ayol bilan oila quradi. Xo‘janing eski sog‘inchli vaziyatlaridan ham battar kunlari boshlanadi. U endi o‘gay ona va otasi munosabatidan aziyat chekadigan, hatto musht yeydigan insonga aylanadi. Eng ko‘p mehr va e‘tibor kerak bo‘lgan davr bolalikdir, aslida. Biroq Xo‘ja bunday baxtdan mosuvo bo‘ladi va onasining oldiga ketishga qaror qiladi. Biroq bundan keyin ham u baxt va mehrga to‘lib yashamagan. Negaki, endi unga ota mehri va e‘tibori yetishmasdi. Oxir-oqibat u kissovur insonga aylandi.

Bu dunyoda boladek sof, beg‘ubor va ishonuvchan inson yo‘qdir. Qissa qahramoni misolida ham biz buni ko‘rishimiz mumkin. Akalarining do‘stlari bilan kinoga borishini eshitgan qahramonimiz ham kinoga borishga shaylanadi. Akalari nima yumush aytishsa, oyog‘i olti, qo‘li yetti bo‘lib bajaradi. Lekin kech tushib akalari kinoga borishayotganda yana uni o‘z yolg‘onlariga ishontirishadi. Bu yolg‘onga ham soddadillik bilan ishongan qahramon oxir-oqibat aldanganini anglaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, qissadagi bolalar begonalar emas, ular bizning, hammamizning bolaligimiz, bola ruhiyatimiz va xislatlarimizdir. Adib real bola tasvirining turli xil ranglarini, chizgilarini shu qadar jonli chizganki, chizgilarni, ranglarni anglagan, his qilgan har bir o‘qirman ko‘z o‘ngida bolaligi jonlanadi. Belinskiy ta‘biri bilan aytganda, qissadagi har bir bola obrazi shunchaki ko‘lanka emas, balki jonli odamning o‘zidir. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish joizdirki, muallif bu jonli tasvirni ruhiy tasvir vositalari orqali yanada jonlantirgan. Bunda u monolog, ichki monolog, dialog, parallel nutq singari tasvir vositalaridan unumli foydalangan:

*“ Ko‘zimga yosh quyilib kelar, butun sinfga, butun maktabga eshittirib hayqirgim kelardi: “Men emas, o‘zi otdi, o‘zi sindirdi! Ishonmasanglar cho‘ntagini qaranglar!” Shunday degim kelardi-yu, negadir ovozim chiqmasdi. Sinfdan otilib chiqib ketdim. Ko‘chaga chiqqandan keyingina yig‘lab yubordim” [8,30-bet].*

Qahramon ichki tug‘yonlarini, hech kimga ayta olmagan gaplarini ichki monolog orqali o‘z-o‘ziga aytyapti. Qahramon ruhiy olamini va kechinmalarini tasvirlashda ichki monologning ahamiyati shu boisdan ham muhimdir. N.Shodiyev o‘zining “Ruhiyat rassomi” risolasida: “Ichki monolog – qahramonning o‘z-o‘zi bilan

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ichdan gaplashishi, fikrlashi, fikr va tuyg‘ularinining ichki ifodasidir. Ichki monologda qahramon o‘zining sirli, yashirin fikrlarigacha aytadi, shu boisdan ichki monolog orqali qahramon kitobxon oldida o‘z-o‘zini ochadi. Shuning uchun ham uning shaxsiyatida hech narsa sirli yoki tushunarsiz bo‘lib qolmaydi”, deydi. Ya’ni qahramonlarning turli vaziyat va holatlardagi kechinmalarini yaxshiroq va to‘laqonli his qilishni ichki monolog ta’minlaydi desak, xato bo‘lmaydi.

Qahramon xarakteri va ichki olamini yoritishda muhim sanalgan psixologik tasvir vositalaridan yana biri dialogdir. Dialogda oldindan o‘ylab olinmaslik va tushunilmaslik holati mavjud bo‘lgani bois unda ekpressivlik va ta’sirchanlik kuchli bo‘ladi. Bu esa qahramonlarni boricha kitobxonga yetkazishga, ularni kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirishga bevosita yordam beradi:

“- *Kuchugimniyam yaxshi ko‘ray-a?*

- *Yaxshi ko‘rgin, o‘glim.*

- *Oyi, Adham jinni-a?*

- *Nega?*

- *Kecha-chi, mushukni muz bilan urdi. Mushuk cho‘loq bo‘lib qoldi.*

- *Jonivorlarga ozor berib bo‘lmaydi, bolam. Bo‘ldi, endi uxlaymiz.*

- *Xo‘p... Katta bo‘lsam, ka-a-atta shaharlarga boramanmi?*

- *Borasan, o‘g‘lim, borasan [8,18-bet].*

Bu dialogda har narsani bilishni xohlovchi va orzu qiluvchi bolaning o‘zini qiziqtiruvchi savollarga javob olishini guvohi bo‘lamiz. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu savol-javob ko‘rinishidagi dialog qiziquvchi bola portretini o‘qirman nigohida jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Bir so‘z bilan aytganda bu qissadagi bolalar so‘zlar orqali tasavvur qilingan emas, balki his qilingan va tabiiy qabul qilingan bolalardir. Adabiyotshunos A.Rasulov ta’biri bilan aytganda, bu tabiiylikni ta’minlagan yozuvchining to‘kilgan peshona terisi, mehnatidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Rasulov. Betakror o‘zlik. Toshkent. Mumtoz so‘z, 2009.
2. H.Umurov. Qahramon ma’naviy olami va epiklik. Toshkent. Fan nashriyoti. 1995.
3. N.Shodiyev. Ruhiyat rassomi. Toshkent. Fan nashriyoti, 1977.
4. M.Boboxonov. Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm. Filol. fan. nomz... diss. –T., 2012.
5. R.To‘laboyeva. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. Filol. fan. nomz... diss. –T., 2020
6. V.G.Belinskiy. Полн. собр. соч. Т.5. – М.: Ан СССР, 1954
7. S.L.Rubinshteyn. Овновы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000.
8. O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari. Toshkent. Nurli dunyo nashriyot uyi, 2022

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani